THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGI VA ISHSIZLIGINING HUDUDIY TAFOVUTLARI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL

Shakirova Nigora Axralovna
Tashkent State University of Economics
PhD, Associate Professor, Department of Economic Statistics
Phone: +99894-364-00-50
E-mail: shakirova0130@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-5025-4764
Bekdurdiyeva Munira Xayrullayevna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Moliya fakulteti 2-kurs talabasi
Tel: +998970250990
E-mail: bekdurdievamunira@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy-tahliliy maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlar bandligining holati, mehnat bozoridagi hududiy nomutanosibliklar hamda ushbu tafovutlarni keltirib chiqaruvchi iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy omillar statistik hamda ekonometrik usullar yordamida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda Milliy statistika qo‘mitasi (SIAT), Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki hamda Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) 1991–2026-yillarga oid rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilgan. Ekonometrik model (Stata18) orqali Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) va ishsizlik darajasi o‘rtasidagi korrelyatsiya asoslangan hamda AR(1) modeli bo‘yicha istiqbolli prognozlar keltirilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining K-3 klaster tumanlari misolida hududiy differensial siyosat modelining samaradorligi baholangan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar bandligi, hududiy tafovutlar, ishsizlik darajasi, NEET ko‘rsatkichi, YaHM, ekonometrik modellashtirish, klaster siyosati, "Yoshlar daftari", norasmiy bandlik.

Abstract: This scientific and analytical article provides an in-depth examination of the state of youth employment in the Republic of Uzbekistan, regional disparities in the labor market, and the economic, demographic, and infrastructural factors contributing to these disparities through the application of statistical and econometric methods. The study draws on official data for the period 1991–2026 obtained from the National Statistics Committee (SIAT), the Ministry of Employment and Poverty Reduction, the World Bank, and the International Labour Organization (ILO). Using an econometric model estimated in Stata 18, the relationship between Gross Regional Product (GRP) and the unemployment rate is assessed through correlation and regression analysis, while an AR(1) model is employed to generate forward-looking forecasts. In addition, the effectiveness of a regionally differentiated policy model is evaluated using the K-3 cluster districts of the Republic of Karakalpakstan as a case study.

Keywords: Youth employment, regional disparities, unemployment rate, NEET rate, Gross Regional Product (GRP), econometric modelling, cluster policy, “Youth Register” (Yoshlar daftari), informal employment.

KIRISH

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biri aholi, xususan, yoshlar bandligini barqaror ta’minlash va hududlararo tengsizlikni kamaytirishdan iboratdir. Mamlakatimiz demografik jihatdan sezilarli ustunlikka ega bo‘lib, aholining 60 foizdan ortig‘ini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida O‘zbekiston eng ko‘p yoshlar resursiga ega mamlakat hisoblanadi: 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar soni 15 millionni, 29 yoshgacha bo‘lganlar esa 18 million kishini tashkil qiladi. Har yili mehnat bozoriga 700 mingga yaqin yoshlar kirib keladi va bu holat mehnat taklifiga doimiy bosim o‘tkazadi.

Demografik va iqtisodiy adabiyotlarda "yoshlar" tushunchasining yosh chegaralari biosotsial va institutsional jihatdan turlicha talqin etiladi. V.V. Pavlovskiy yoshlarni 13–14 yoshdan 29–30 yoshgacha bo‘lgan biosotsial guruh sifatida belgilasa, S.N. Ikkonikova va V.T. Lisovskiy ushbu chegarani 16 yoshdan 30 yoshgacha deb ko‘rsatadi. YUNESKO metodologiyasida 17–25 yoshdagilar yoshlar safiga kiritilsa, Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Jahon banki standartlarida 15–24 yosh oralig‘i asosiy tahliliy kategoriya hisoblanadi. O‘zbekiston milliy amaliyotida va huquqiy me’yorlarida esa 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan mehnatga qobiliyatli aholi yoshlar qatlamini tashkil etadi.

Yoshlar bandligi va inson kapitalini rivojlantirish masalalari xalqaro hamda milliy olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Gari Bekker (Gary Becker) inson kapitali nazariyasida kasbiy tayyorgarlik va ta’lim yoshlar raqobatbardoshligini oshiruvchi poydevor ekanligini isbotlagan. M. Porterning klaster yondashuvi esa geografik va iqtisodiy bog‘liq hududlarni birlashtirish orqali sinergiya samarasiga erishishni asoslaydi. Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh. Shodmonov, U. G‘afurov, Yo. Abdullayev va D. Toshmuhamedova mehnat bozori mexanizmlari hamda gender iqtisodiyotini o‘rgangan bo‘lsalar, Sh. Mustafakulov, F. Abdumalikov, X. Madraimov, A. Aysachev hamda Sh. Islomovlar o‘z izlanishlarida hududiy nomutanosibliklar va klasterli yondashuvlarning amaliy ahamiyatini ko‘rsatib berishgan.

Shunga qaramasdan, respublika viloyatlari va tumanlari kesimida sanoatlashuv darajasi, investitsiyalar hajmi, infratuzilma hamda raqamli savodxonlikdagi farqlar sababli yoshlar bandligini ta’minlashda keskin hududiy tafovutlar saqlanib qolmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda yoshlar bandligining hududiy xususiyatlarini statistik va ekonometrik metodlar vositasida baholash hamda mavjud nomutanosibliklarni yumshatishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA ME’TODLAR

Ushbu tadqiqotda aralash metodologik yondashuv qo‘llanilgan bo‘lib, miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari kompleks tahlil qilingan. Tahlil jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ochiq ma’lumotlar portali va "O‘zbekistonda mehnat va bandlik" statistik to‘plamlaridan foydalanildi va qiyosiy tahlil qilindi. Bundan tashqari mahalliy va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o’rganib chiqildi. Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi ma’lumotlari, Jahon bankining "Uzbekistan Jobs Diagnostic" hamda "Youth Employment in Uzbekistan" tadqiqotlari, Xalqaro Mehnat Tashkilotining (ILO) modellashtirilgan baholashlari tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosi to‘rt bosqichli statistik va ekonometrik usullar majmuasiga tayanadi. Tadqiqotning metodologik asosini yoshlar bandligi va hududiy mehnat bozori ko‘rsatkichlarini kompleks baholashga qaratilgan to‘rt bosqichli statistik va ekonometrik tahlil tashkil etadi. Tadqiqotda deskriptiv statistika, dinamik qatorlar tahlili, chiziqli regressiya, korrelyatsion tahlil, avtoregression AR(1) modeli, klasterli modellashtirish hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlarning o‘zaro uyg‘unlashtirilishi mehnat bozori ko‘rsatkichlarining uzoq muddatli dinamikasini aniqlash, iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni baholash, qisqa muddatli prognozlarni shakllantirish hamda hududiy nomutanosibliklarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning birinchi bosqichida deskriptiv statistika va dinamik qatorlar tahlili asosida 1991–2026-yillar oralig‘idagi mehnat bozori ko‘rsatkichlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalari o‘rganildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, mustaqillikning dastlabki yillarida yoshlar ishsizligi 12 foizdan yuqori darajada shakllangan va 1999-yilda 28 foizlik eng yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan. Keyingi davrda ushbu ko‘rsatkich pasayish tendensiyasini namoyon etib, 2024-yilda 10,9 foizni tashkil etgan. Mazkur dinamika mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar, bandlikni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va kasb-hunar ta’limi tizimidagi islohotlar fonida kuzatilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston mehnat bozorida yoshlar bandligining shakllanishi demografik, iqtisodiy va institutsional o‘zgarishlarning murakkab jarayoni bilan kechdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik darajasi 12 foizdan yuqori bo‘lib, iqtisodiy transformatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida 1999-yilda 28 foizlik eng yuqori ko‘rsatkichga yetgan. Keyingi o‘n yilliklarda bozor institutlarining rivojlanishi, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, kasb-hunar ta’limi tizimidagi o‘zgarishlar fonida yoshlar ishsizligining pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2024-yilda 10,9 foizni tashkil etgan. Mazkur omillar va ishsizlik dinamikasi o‘rtasidagi

1-jadval. O‘zbekistonda yoshlar ishsizligi va umumiy mehnat bozori ko‘rsatkichlari dinamikasi (2020–2024-yillar)

Yil	Yoshlar ishsizligi (%)	Umumiy ishsizlik (%)	O’zgarish (foiz bandda)
2020	12.84	5.29	—
2021	13.04	5.36	+0.20
2022	10.96	4.49	–2.08
2023	10.86	4.46	–0.10
2024	10.94	≈ 4.90	+0.08

sababiy munosabatni aniqlash esa alohida ekonometrik tahlilni talab qiladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va Jahon bankining modellashtirilgan baholashlariga ko‘ra, 15–24 yosh guruhidagi yoshlar ishsizligi 2020-yilda 12,84 foiz, 2021-yilda 13,04 foiz, 2022-yilda 10,96 foiz, 2023-yilda 10,86 foiz va 2024-yilda 10,94 foizni tashkil etgan. Ushbu dinamika 2021-yildan keyin yoshlar ishsizligining nisbatan pasayganini, biroq keyingi yillarda ko‘rsatkich 11 foiz atrofida barqarorlashganini ko‘rsatadi. 2024-yildagi yoshlar ishsizligi ko‘rsatkichi keltirilgan global o‘rtacha darajadan (15,7 foiz) past bo‘lsa-da, mamlakatdagi umumiy ishsizlik darajasidan (4,9 foiz) qariyb 2,2 baravar yuqoridir. Bu holat yoshlarning mehnat bozoriga

kirishida aholining boshqa yosh guruhlariga nisbatan muayyan strukturaviy to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatishi mumkin.

2-jadval. O‘zbekiston hududlarida mehnat resurslari soni va o‘sish sur’ati (2020–2024-yillar, ming kishi)

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	O‘sish sur’ati (%), 2020-yilga nisbatan
Qoraqalpog‘iston Resp.	1074.7	1066.1	1067.6	1072.6	1098.6	102.2
Andijon viloyati	1754.8	1745.3	1780.8	1799.6	1807.4	103.0
Buxoro viloyati	1067.1	1072.3	1074.7	1089.2	1085.3	101.7
Jizzax viloyati	773.8	782.6	791.0	799.4	802.0	103.6
Qashqadaryo viloyati	1809.8	1811.0	1813.4	1826.7	1888.5	104.3
Navoiy viloyati	555.2	564.5	570.6	584.5	597.4	107.6
Namangan viloyati	1580.4	1586.1	1588.3	1603.9	1632.4	103.3
Samarqand viloyati	2125.2	2122.0	2164.8	2167.6	2190.9	103.1
Surxondaryo viloyati	1452.2	1464.6	1465.4	1486.0	1515.8	104.4
Sirdaryo viloyati	485.0	489.4	487.4	492.2	503.2	103.8
Toshkent viloyati	1615.4	1622.5	1619.2	1640.7	1671.6	103.5
Farg‘ona viloyati	2069.3	2083.9	2097.8	2121.7	2143.3	103.6
Xorazm viloyati	1044.8	1047.1	1050.9	1064.3	1080.3	103.4
Toshkent shahri	1750.5	1877.5	1945.6	1991.2	2068.5	118.2

O‘zbekiston hududlarida mehnat resurslarining shakllanishi va hududiy taqsimlanishi demografik o‘sish, urbanizatsiya, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi hamda ichki migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq. 2020–2024-yillarda respublika bo‘yicha mehnat resurslari soni 19 million 158,2 ming kishidan 20 million 85,2 ming kishiga ko‘paygan. Natijada mehnat resurslarining mutlaq o‘sishi 927 ming kishini, nisbiy o‘sishi esa qariyb 4,8 foizni tashkil etgan. Hududlar kesimida mehnat resurslarining nisbatan yuqori o‘sish sur’ati Toshkent shahrida kuzatilib, 2024-yildagi ko‘rsatkich 2020-yil darajasining 118,2 foizini tashkil etgan. Bunday dinamika poytaxtning yirik iqtisodiy markaz sifatidagi mavqei, xizmatlar sektorining rivojlanganligi va ichki migratsiya oqimlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Viloyatlar orasida Navoiy viloyatida ko‘rsatkich 107,6 foizni tashkil etib, mehnat resurslari 42,2 ming kishiga ko‘paygan. Surxondaryo viloyatida 104,4 foizlik (63,6 ming kishi), Qashqadaryo viloyatida esa 104,3 foizlik (78,7 ming kishi)

o‘sish qayd etilgan. Nisbatan past o‘sish Buxoro viloyatida kuzatilib, ko‘rsatkich 101,7 foiz yoki 18,2 ming kishini tashkil etgan. Mehnat resurslarining mutlaq hajmi bo‘yicha esa Samarqand viloyatida 2 million 190,9 ming, Farg‘ona viloyatida 2 million 143,3 ming kishi qayd etilgan. Rasmiy SIAT ma’lumotlariga ko‘ra, umumiy bandlik darajasida ham hududlararo tafovutlar mavjud. Toshkent shahrida bandlik darajasi 2024-yilda 82,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil uchun 86,9 foizlik ko‘rsatkich keltirilgan. Navoiy viloyatida ushbu ko‘rsatkich 75,9 foiz, Andijon viloyatida 73,0 foiz va Toshkent viloyatida 72,9 foizni tashkil etgan. Surxondaryo (64,8 foiz), Qashqadaryo (65,9 foiz), Namangan (67,0 foiz), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (67,3 foiz) va Samarqand viloyatida (67,6 foiz) esa nisbatan past ko‘rsatkichlar qayd etilgan. Bunday hududiy tafovutlarning sabablarini faqat bitta omil bilan izohlash mumkin emas; iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, demografik yuklama, investitsiyalar, urbanizatsiya, migratsiya va rasmiy ish o‘rinlari taklifi kabi omillarni birgalikda hisobga olish zarur. Mahallalar kesimidagi prognozlarga ko‘ra, 2026-yilda Toshkent shahrida yoshlar bandligi 74,8 foiz va ayollar bandligi 65,4 foiz, Navoiy viloyatida mos ravishda 73,1 va 63,8 foiz, Samarqand viloyatida 72,3 va 61,9 foiz, Surxondaryo viloyatida esa 67,5 va 56,2 foiz darajasida shakllanishi kutilgan. Ushbu qiymatlar prognoz xususiyatiga ega bo‘lgani sababli ularni amaldagi statistik ko‘rsatkichlardan metodologik jihatdan ajratib ko‘rsatish muhimdir. Ishsizlik darajasi 2025-yilda 4,96 foiz, 2026-yilda 4,05 foiz va 2027-yilda 3,06 foiz darajasida shakllanishi prognoz qilindi. Ushbu qiymatlar regressiya modeliga kiritilganda YaHMning hisoblangan ssenariy qiymatlari 2025-yilda 304 trillion 705,5 milliard so‘m, 2026-yilda 341 trillion 982,7 milliard so‘m va 2027-yilda 382 trillion 264,1 milliard so‘mni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkichlar rasmiy makroiqtisodiy prognoz emas, balki model parametrlarining saqlanib qolishi va vaqtli qator tendensiyasining davom etishi sharti ostida hisoblangan empirik ssenariylar sifatida talqin qilinadi. Hududiy darajada Qoraqalpog‘iston Respublikasining K-3 klasteriga kiritilgan Chimboy, Kegeyli, Amudaryo, Ellikqal’a

va Nukus tumanlarining iqtisodiy hamda raqamli rivojlanish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda mintaqaga 1,4 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilingan va 212 ming yangi ish o'rni yaratilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy va raqamli imkoniyatlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishida sezilarli tafovutlar mavjud. Nukus shahri va unga tutash hududlarda raqamli infratuzilmaning nisbatan rivojlanganligi kuzatiladi. Nukus tumanida internet qamrovi qariyb 85 foiz, kompyuterga egalik darajasi 45 foiz va yoshlar ulushi 38 foiz atrofida deb baholangan. Chimboy va Kegeylini birlashtiruvchi Shimoliy klaster asosan paxtachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan bo'lib, yoshlar ulushi taxminan 34–35 foiz, internet qamrovi 52–55 foiz va kompyuterga egalik darajasi 16–18 foiz atrofida qayd etilgan. Amudaryo va Ellikqal'ani qamrab oluvchi Janubiy klasterda esa bog'dorchilik, uzumchilik va turizm iqtisodiy ixtisoslashuvning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Mazkur hududlarda raqamli infratuzilmaning nisbatan cheklanganligi yoshlarning zamonaviy xizmatlar va raqamli iqtisodiyotdagi bandlik imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan statistik va ekonometrik tahlillar natijalari O'zbekistonda yoshlar bandligi masalasining umumiy manzarasini ancha to'liq tasavvur etishga imkon beradi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda yoshlar ishsizligi darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu esa mehnat bozorining institutsional jihatdan asta-sekin barqarorlashib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ushbu umumiy ijobiy dinamika fonida hududiy va tarkibiy nomutanosibliklarning hamon saqlanib qolayotgani e'tiborni jalb qiladi. Xususan, Toshkent shahri va Navoiy viloyati singari sanoat salohiyati yuqori hamda moliyaviy resurslar nisbatan ko'proq to'plangan hududlar bilan Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining agrar yo'nalishdagi chekka tumanlari o'rtasida bandlik darajasi bo'yicha 15–20 foizga yaqin farq qayd etildi. Bunday tafovutni

statistik ma’lumotlarning tasodifiy og‘ishi sifatida emas, balki mamlakat iqtisodiyotining hududiy tarkibida chuqur ildiz otgan tizimli omillar mahsuli sifatida baholash to‘g‘riroq bo‘ladi. Ushbu nomutanosibliklarning kelib chiqishida bir qancha omillar o‘zaro ta’sirda namoyon bo‘ladi. Avvalo, iqtisodiy markazlashuv masalasini alohida qayd etish lozim. Investitsiya oqimlari va kapital resurslarning katta qismi an’anaga ko‘ra poytaxt va yirik sanoat markazlarida jamlangan bo‘lib, natijada chekka hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish sur’ati nisbatan sekin kechmoqda. Mehnat resurslari salmog‘i bilan investitsiya taqsimoti o‘rtasidagi bunday nomutanosiblik yoshlarning o‘z mintaqasida munosib ish topish imkoniyatini toraytiradi va ularni ichki hamda tashqi migratsiyaga undovchi omillardan biriga aylanadi. Bundan tashqari, infratuzilma va raqamli bo‘linish muammosi mehnat bozoridagi imkoniyatlar tengsizligini yanada kuchaytiradi. Chekka tumanlarda internet qamrovi va tezligining pastligi, kompyuter texnikasi bilan ta’minlanish darajasining yetarli emasligi yoshlarning raqamli iqtisodiyot va masofaviy bandlik shakllaridan foydalanishini sezilarli darajada cheklaydi. Zamonaviy mehnat bozorida raqamli ko‘nikmalarga bo‘lgan talab tobora ortib borayotganini hisobga olsak, mazkur infratuzilmaviy tafovut hududlar o‘rtasidagi bandlik farqini yanada chuqurlashtiruvchi omilga aylanadi. Shuningdek, ta’lim tizimi tomonidan shakllantirilayotgan malaka bilan mehnat bozorining amaldagi talablari o‘rtasidagi nomuvofiqlik ham diqqatga sazovor. Bir tomondan, ish beruvchilar malakali kadrlar yetishmasligidan shikoyat qilsa, ikkinchi tomondan, ta’lim muassasalari bitiruvchilari bandlikka chiqishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunday malaka-talab nomutanosibligi tuzilmaviy ishsizlikning muhim manbalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Nihoyat, gender tengsizligi masalasini alohida ta’kidlash zarur. Jamiyatda hukmron bo‘lgan an’anaviy ijtimoiy qarashlar, shuningdek, oilaviy majburiyatlarga moslashuvchan ish o‘rinlarining yetishmasligi xotin-qizlar o‘rtasida NEET (ta’lim, bandlik yoki kasbiy tayyorgarlikda bo‘lmagan yoshlar) darajasining erkaklarnikiga nisbatan ancha

yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holatni faqat statistik ko‘rsatkich sifatida emas, balki chuqur ijtimoiy-institutsional muammo sifatida ham talqin etish lozim. Sanab o‘tilgan omillarning o‘zaro ta’siri O‘zbekiston yoshlar mehnat bozoridagi hududiy tafovutlarning bir qirrali emas, balki ko‘p qatlamli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilgan siyosat alohida ko‘rsatkichlarga emas, balki investitsiya taqsimoti, raqamli infratuzilma, ta’lim sifati va gender tengligi kabi omillarni o‘zaro bog‘liqlikda hisobga oluvchi kompleks yondashuvga tayanishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Abdumalikov, F. I. (2025). Mehnat bozori segmentatsiyasi va yoshlar bandligi: O‘zbekiston tajribasi va institutsional yechimlar. Modern Educational System and Innovative Teaching Solutions, 63–64.

Aysachev, A. A., & Shamshidinova, Z. (2026). Mahallalarda yoshlar va ayollar bandligini oshirish dasturlarining statistik samaradorligi: O‘zbekistonda 2020-2026 yillar tahlili. Science and Education, 108–137.

Bobomirzayev, A. A., & Suyunova, S. O. (2025). O‘zbekistonda yoshlar bandligi bo‘yicha statistik tahlil. Journal of Scientific Research and Their Solutions, 8(1), 222–230.

Islomov, Sh. M., & Qarshiyev, A. S. (2025). Mehnat resurslari miqdori o‘zgarishi va bandlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik. Economics and Accounting in the Green Economy and Their Solutions, 320–326.

Madraimov, X. M. (2026). Qoraqalpog‘iston Respublikasida yoshlar ishsizligi va raqamli ko‘nikmalar tafovuti: K-3 klaster hududlari uchun differentsial siyosat modeli. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali, 2-son, 25–32.

Mustafakulov, Sh. I. (2025). O‘zbekiston–2030 strategiyasi: Hududiy iqtisodiy rivojlanish doirasida viloyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №003, 81–88.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. SIAT ochiq ma’lumotlar portali: Uroven zanyatosti v Razreze regionov (2010–2025).

World Bank. (2021). Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Executive Summary & Main Report, Washington D.C